O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Angren universiteti “Milliy g’oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
2-bosqich, MF-24-1guruh talabasi
Fayzullayeva S.Sh.
Angren universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar”
kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Zakirov Sh.M.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va mustahkamlashning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Jumladan, Konstitutsiya va boshqa muhim qonun hujjatlari — “Ijtimoiy himoya to‘g‘risida”, “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlarning, hamda “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida qabul qilinayotgan ijtimoiy siyosat jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy barqarorlik, huquqiy asoslar, Konstitutsiya, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, korrupsiyaga qarshi kurash, taraqqiyot strategiyasi, inson qadri, adolat, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, manzilli yordam.*

Аннотация: *В статье анализируются правовые основы обеспечения и укрепления социальной стабильности в Республике Узбекистан. В частности, освещается роль Конституции и других важных законодательных актов – законов «О социальной защите», «О молодежной политике», «О противодействии коррупции», а также*

социальной политики, принятой в рамках стратегии развития «Новый Узбекистан», в обеспечении социальной стабильности.

Ключевые слова: *Социальная стабильность, правовая база, Конституция, социальная защита, молодежная политика, борьба с коррупцией, стратегия развития, человеческое достоинство, справедливость, гражданское общество, верховенство права, адресная помощь.*

Abstract: *The article analyzes the legal framework for ensuring and strengthening social stability in the Republic of Uzbekistan. In particular, it highlights the role of the Constitution and other important legislative acts – the laws "On Social Protection" and "On Youth Policy", "On Combating Corruption", as well as social policy adopted within the framework of the "New Uzbekistan" development strategy, in ensuring social stability.*

Key words: *Social stability, legal framework, Constitution, social protection, youth policy, fight against corruption, development strategy, human dignity, justice, civil society, rule of law, targeted assistance.*

Zamonaviy demokratik jamiyatda ijtimoiy barqarorlik eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha jamiyatda tinchlik, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati kabi tamoyillar asosida barpo etiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda bir qator huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Quyida mazkur jarayonning mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari haqida fikr yuritiladi.

Ijtimoiy barqarorlik – bu jamiyatda turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida muvozanat, tinchlik va barqarorlik holatining saqlanishi, fuqarolarning o‘z davlatiga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy faolligining yuksak bo‘lishidir.

Barqarorlik fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik va hamkorlikni mustahkamlaydi. Etnik, diniy va ijtimoiy xilma-xillik sharoitida bu omillar ijtimoiy keskinliklarning oldini olib, ijtimoiy birlikni ta’minlaydi.

Ijtimoiy barqarorlik deganda jamiyatda mavjud ijtimoiy qatlamlar, guruhlar va shaxslar o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida yashash, nizolarning qonuniy yo‘l bilan hal qilinishi, ijtimoiy adolatning ta’minlanishi tushuniladi. Barqaror jamiyatda siyosiy hokimiyatga ishonch yuqori bo‘ladi, fuqarolik jamiyati institutlari faol ishlaydi va ijtimoiy xavfsizlik tizimi samarali faoliyat yuritadi.

O’zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli huquqiy baza yaratilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — ijtimoiy barqarorlikni huquqiy jihatdan mustahkamlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Unda quyidagi asosiy tamoyillar belgilangan:

Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik — bu jamiyatda nizolarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi (8-modda). O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

Inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi (Xususan, 13, 14, 18-moddalar) — bu huquqlar davlat tomonidan tan olinadi va himoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi (1).

Ijtimoiy adolat va himoya — davlat fuqarolarga ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot sohalarida huquqlarini kafolatlaydi (41–43-moddalar). Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi (2).

Ijtimoiy barqarorlikni huquqiy jihatdan mustahkamlashda bir qator sohaviy qonunlar muhim o'rin tutadi: "Yoshlar siyosati to'g'risida"— yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, radikal g'oyalardan himoyalash; "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" — davlat organlariga ishonchni mustahkamlash;

"Yoshlar siyosati to'g'risida" qonuning kirish qismida, yoshlar siyosati nima uchun muhim ekanini ko'rsatadi. Jumladan: **1-modda** Ushbu modda qonunning yoshlar siyosatini tartibga solish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar orqali yoshlarning salohiyatini rivojlantirish maqsadlarini belgilaydi. (3).

Korrupsiya — har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diruvchi omil sanaladi. Bu illat nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini izdan chiqaradi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish, bu borada aniq qonuniy asoslar yaratish — har qanday huquqiy davlat uchun ustuvor vazifa sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi ham bu yo'nalishda qat'iy siyosat yuritib, 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Mazkur qonun korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va uni sodir etganlarga nisbatan muqarrap javobgarlikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy hujjatdir.

Barqaror jamiyatni qurishda ochiqlik, "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan ijtimoiy siyosathaffoflik va adolat asosida kurashish zarurligi bu modda asosida asoslab beriladi. Aynan 5-moddada (4) korrupsiyaga qarshi kurash borasida davlat siyosatining strategik yo'nalishlarini ko'rsatadi:

- Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish

- Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish
- Korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish
- Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyatini ta’minlash

Ushbu yo‘nalishlar orqali korrupsiyaga qarshi kurashning profilaktik (oldini olishga qaratilgan) jihatlarini asoslash mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan bir qator siyosiy strategiyalar ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bulardan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026 - Mazkur strategiya ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolar farovonligini oshirish, sud-huquq tizimini isloh qilish va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan. “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan ijtimoiy siyosat- Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ushbu tamoyil orqali har bir fuqaroning hayoti, sha’ni va huquqlari davlat e’tiborida ekanini ifodalaydi. Bu tamoyil – barqarorlik, totuvlik va huquqiy adolatning asosi hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, har bir bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, inson manfaatlarini ustuvor qilish va jamiyatda barqarorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Ayniqsa, 2022-yilda davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026” hujjati mamlakat hayotining barcha jabhalarini, jumladan, ijtimoiy barqarorlik, qonun ustuvorligi, adolat va inson qadrini ulug‘lashni asosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi. Bu strategiya jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni mustahkamlash, fuqarolarning farovon hayot kechirishi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni oshirish, shuningdek, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish orqali O‘zbekistonda uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashni ko‘zlaydi (5).

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash borasida zamonaviy va kompleks huquqiy asoslar shakllanmoqda. Bu esa davlat va jamiyat o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhitni ta’minlash, fuqarolarning farovonligi va huquqiy himoyasini kafolatlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy himoya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2023-yil 10-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar.
5. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli farmoni.